

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISHNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Saburov Jumanazar Saliyevich

*Toshkent gumanitar fanlar
universitetining Moliya iqtisod
ishlari bo'yicha prorektori*

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari qishloq xo'jaligi sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, xalqaro bozorlarda barqaror o'rin egallash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. Ushbu mavzu qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, logistika tizimlarini takomillashtirish, sifat standartlarini oshirish va xalqaro savdo qoidalariga rioya qilish kabi iqtisodiy mexanizmlarni o'rganigan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining global raqobatbardoshligini mustahkamlash strategiyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Qishloq xo'jaligi, eksport, iqtisodiy asoslar, raqobatbardoshlik, xalqaro bozor, logistika tizimlari, sifat standartlari, moliyaviy resurslar, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion texnologiyalar, bozor diversifikatsiyasi.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining muhim ustunlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi mamlakatning umumiy eksport hajmida sezilarli ulush egallab, aholining bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti jadal sur'atlar bilan o'sib, 2022 yilda umumiy eksportning 115,9 foizga ko'tarilishi bilan birga, qishloq xo'jaligi tarmoqning o'sish sur'ati 103,6 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasini 118,6 foizga yetkazib, mamlakat iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilgan rivojlanishini yaqqol namoyon etmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti respublika tashqi daromadining 10 foizdan ortig'ini tashkil qilgan bo'lib, bu soha kelajakda mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy dvigatellaridan biri sifatida belgilangan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi[1] qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, unda eksportbop mahsulotlar yetishtirish, meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirish orqali eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish

maqsadi qo'yilgan. Ushbu strategiya doirasida qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, dehqon va fermerlar daromadini 2 baravar oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, bu esa umumiy eksport hajmini 2026 yilda 30 milliard AQSh dollariga yetkazishga xizmat qiladi. Strategiyada qishloq xo'jaligida davlat qo'llab-quvvatlashini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlari joriy etilishi orqali tarmoqning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan choralar belgilangan. Xalqaro tajribaga nazar solsak, Chili mamlakati qishloq xo'jaligi eksportini rivojlantirishda "Ishlab chiqarishning qiyosiy xarajatlari" asosida raqobatbardosh tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash modelini muvaffaqiyatli qo'llab, agro-o'rmonchilik mahsulotlari eksportini jadal oshirgan. Chili tajribasi shuni ko'rsatadiki, savdoni liberallashtirish, xalqaro savdo bitimlariga qo'shilish va tarif to'siqlarini kamaytirish orqali eksport hajmi 20 yil ichida 10 baravarga oshgan bo'lib, bu O'zbekiston uchun meva-sabzavot eksportini diversifikatsiya qilishda ibratli namuna bo'la oladi. O'zbekistonning shunga o'xshash strategiyalarni qo'llashi eksport geografiyasini kengaytirishga va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Niderlandiyada esa qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali jahon bozorida yetakchi o'rin egallagan. Mamlakat qishloq xo'jaligi eksporti Yalpi Ichki Mahsulotning 15-20 foizini tashkil qiladi, bu esa suv tejaydigan texnologiyalar va raqamli monitoring tizimlarini qo'llash natijasida erishilgan. Niderlandiya tajribasi O'zbekiston uchun suv resurslaridan samarali foydalanish va organik ishlab chiqarishga o'tishda qimmatli bo'lib, xususan, 2022 yilda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi o'sishi 3,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu tajribani qo'llash eksportni 20-30 foizga oshirishi mumkin. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi[2] qishloq xo'jaligini rivojlantirishning uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilab, bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, soha eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga oshirish maqsadini qo'ygan. Strategiyada agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha 80-85 sentnerga yetkazish ko'zda tutilgan bo'lib, bu 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining davomi sifatida amalga oshiriladi. Qo'shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalar orqali o'zlashtirish va mahalliy urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish kabi qadamlar qishloq xo'jaligining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Ushbu strategiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichini 25 foizdan yuqori qilishga qaratilgan choralar eksport salohiyatini yanada kuchaytiradi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasidan iqtibos keltiradigan bo'lsak: "Bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish. Qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish." Bu qadamlar O'zbekistonni global qishloq xo'jaligi bozorida raqobatbardosh ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi. Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-

sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish[3]. Bu strategik maqsadlar qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, mamlakatning eksport diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari nafaqat milliy strategiyalar bilan bog'liq, balki global tendensiyalarga moslashishni talab etadi. Jumladan, Chili va Niderlandiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga (Global G.A.P. va Organic) rioya qilish eksport hajmini 2-3 baravar oshirishi mumkin. O'zbekistonda 2023 yilda qishloq xo'jaligi o'sishi 2,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, strategiyalar doirasida bu ko'rsatkichni 5-6 foizga yetkazish eksportni 15-20 milliard dollarga ko'tarish imkonini beradi. Kelajakda O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. 2022-2026 va 2030 strategiyalari doirasida investitsiyalarni jalb qilish va bozorlarni diversifikatsiya qilish orqali soha eksporti global miqyosda o'sish sur'atlarini ta'minlaydi. Xalqaro tajribalarni o'zlashtirish, Niderlandiyaning raqamli agro-platformalari, O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar ochadi va mamlakatni qishloq xo'jaligi eksportchilari orasida yetakchilarga qo'shilishga undaydi. Ushbu islohotlar natijasida O'zbekiston nafaqat ichki bozorni mustahkamlaydi, balki xalqaro savdo zanjirlarida faol ishtirok etib, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi eksportining o'sishi, 2022 yildagi 115,9 foizdan kelib chiqib, 2026 yilga 30 milliard dollarga yetishi kutilayotgan bo'lib, bu mamlakatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Strategiyalardagi qadamlar va xalqaro tajribalar asosida soha rivoji O'zbekistonni yangi iqtisodiy bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar sharxi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari mavzusi borasida bir qator xorijiy olimlar tadqiqot olib borishgan. Jumladan, Amir Lebdioui Chili qishloq xo'jaligi eksportining muvaffaqiyatini "qiyosiy afzalliklar" nazariyasiga asoslangan iqtisodiy siyosat bilan bog'laydi. Uning fikricha, Chili hukumati savdoni liberallashtirish va xalqaro savdo shartnomalariga qo'shilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 20 yil ichida 10 baravarga oshirgan. Lebdioui ta'kidlaydiki, "davlatning strategik qo'llab-quvvatlashi va bozorlarni diversifikatsiya qilish qishloq xo'jaligi eksportining barqaror o'sishini ta'minladi"deb fikr yuritgan. [4]. Yana bir olim Jan Douwe van der Ploeg so'zlariga ko'ra, "Niderlandiya qishloq xo'jaligi eksportining muvaffaqiyati suv tejaydigan texnologiyalar, issiqxona xo'jaliklari va logistika tizimlarining yuqori samaradorligi bilan bog'liq" (van der Ploeg, 2015, p. 45). Niderlandiyada qishloq xo'jaligi eksporti YIMning 15-20 foizini tashkil etadi, bu esa O'zbekiston uchun suv resurslaridan samarali foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim namuna bo'la oladi. O'zbekistonning 2022-2026 Taraqqiyot strategiyasida issiqxona

maydonlarini 2 baravar oshirish rejaları van der Ploegning yondashuviga mos keladi, ammo bu jarayonda raqamli monitoring tizimlari va organik sertifikatlashni kengaytirish zarur[5]. David Orden fikricha, “xususiy sektor bilan hamkorlikda davlatning subsidiyalari va infratuzilma investitsiyalari eksport hajmini oshirishda muhim omil hisoblanadi[6] deb takidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini o‘rganishda sifatli va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirgan aralash metodologiyaga asoslanadi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy samaradorlik va global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Birinchi navbatda, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi eksport xarajatlarini oshiradi. Jumladan, 2023 yilda O‘zbekistonning meva-sabzavot eksporti logistik xarajatlarga bog‘liq ravishda 15-20 foiz qimmatlashgan, bu esa xalqaro bozorlarda narx raqobatbardoshligini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi past bo‘lib, 2022 yilda faqat 20 foiz mahsulot qayta ishlangan holda eksport qilingan, bu esa qo‘shilgan qiymat va daromadni cheklaydi. Xalqaro standartlarga rioya qilishda sertifikatlash jarayonlarining sekinligi va qimmatligi kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklari uchun jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Suv resurslaridan samarasiz foydalanish va zamonaviy sug‘orish texnologiyalarining yetishmasligini keltirish mumkin. O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi yerlarining faqat 30 foizida suv tejaydigan texnologiyalar qo‘llaniladi, bu esa hosildorlikni pasaytiradi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni cheklaydi. Niderlandiya tajribasi suv tejaydigan tizimlar orqali hosildorlikni 30-40 foizga oshirish mumkinligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda bu sohada investitsiyalar hali yetarli emas. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi ta’sirida suv tanqisligi va qurg‘oqchilik eksportbop ekinlar yetishtirishda qo‘shimcha xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda, bu “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan bir gektardan 5 ming dollar daromad maqsadini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Eksport bozorlarining cheklanganligi va diversifikatsiya darajasining pastligidir. 2023 yilda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi eksportining 70 foizdan ortig‘i MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelgan, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga kirish esa savdo to‘siqlari va logistika muammolari tufayli sekin kechmoqda (FocusEconomics, 2024). Chili tajribasi savdo shartnomalarini kengaytirish orqali eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish muhimligini ko‘rsatadi, ammo O‘zbekistonda xalqaro savdo tashkilotlariga qo‘shilish va tarif to‘siqlarini kamaytirish bo‘yicha qadamlar hali to‘liq amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklikning yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsiyalarni jalb qilishni cheklab, eksportni 2026 yilga 30 milliard dollarga yetkazish maqsadini xavf ostida qoldirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish

uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, logistika tizimlarini modernizatsiya qilish va xalqaro sertifikatlariga moslashish bo'yicha kompleks choralar talab etiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari


Kriteriy	O'zbekiston (2022-2024)	Chili tajribasi	Niderlandiya tajribasi	O'zbekiston uchun takliflar (2030 strategiyasi)
Eksport hajmi	2024 yilda 174,9% o'sish, umumiy eksportning 10%+	20 yilda 10 baravar o'sish	YIMning 15-20%	2026 yilga 30 mlrd USD, 2030 yilga 10 mlrd USD eksport
Logistika infratuzilmasi	Logistik xarajatlar tufayli narxlar 15-20% qimmatlashgan	Samarali transport tizimlari, tarif to'siqlari kamaytirilgan	Zamonaviy logistika, raqamli monitoring	Logistika tizimlarini modernizatsiya qilish, xarajatlarni 15-20% kamaytirish
Suv resurslari	Suv tejaydigan tizimlar 30% yerlarda qo'llaniladi	Suv tejashda o'rta daraja, agro-o'rmonchilikda samaradorlik	Suv tejaydigan texnologiyalar, hosildorlik 30-40% oshgan	300 ming gektarga suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish
Qayta ishlash darajasi	20% mahsulot qayta ishlangan	Qayta ishlash yuqori, qo'shilgan qiymat oshirilgan	Qayta ishlash 50%+	Qayta ishlashni 25%+ ga yetkazish
Xalqaro standartlar	Global G.A.P. va Organic sertifikatlash sekin, qimmat	Xalqaro standartlarga moslashish muvaffaqiyatli	Global G.A.P. va organik sertifikatlar keng qo'llaniladi	Sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish, fermerlar uchun subsidiyalar
Bozor diversifikatsiyasi	70%+ MDH bozorlari	Yevropa, Osiyo va Amerika bozorlariga kengayish	Global bozorlarda yetakchilik	Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga kirishni kengaytirish

Davlat-xususiy sheriklik	Cheklangan, investitsiyalar yetarli emas	Davlat subsidiyalari va xususiy sektor hamkorligi	Kuchli davlat-xususiy sheriklik	Investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish
Innovatsion texnologiyalar	Intesiv bog'lar 1,5 baravar, issiqxonalar 1,8 baravar oshgan	O'rta darajada texnologiyalar qo'llaniladi	Raqamli platformalar, issiqxona texnologiyalari	Raqamli monitoring va zamonaviy issiqxona tizimlarini joriy etish
Iqtisodiy samara	2024 yilda 6,5% o'sish, bir gektardan o'rtacha daromad past	Yuqori qo'shilgan qiymat, eksport daromadi	YIMning 15-20% eksportdan	Bir gektardan 5 ming USD daromad

Tahliliy jadvalda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish sohasidagi hozirgi holatini Chili va Niderlandiya kabi rivojlangan tajribalar bilan solishtiradi va "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga asoslangan takliflarni taqdim etadi. Jadvalda eksport hajmi, logistika infratuzilmasi, suv resurslaridan foydalanish, qayta ishlash darajasi, xalqaro standartlar, bozor diversifikatsiyasi, davlat-xususiy sheriklik va innovatsion texnologiyalar kabi asosiy kriteriyalar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilgan. O'zbekistonning 2024 yilda eksport hajmi 174,9 foizga o'sishi va umumiy tashqi savdo aylanmasida qishloq xo'jaligining 10 foizdan ortiq ulushga ega ekanligi sohada sezilarli yutuqlarni ko'rsatadi. Biroq, logistika xarajatlari va qayta ishlashning past darajasi kabi muammolar eksport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Chili tajribasi savdo to'siqlarini kamaytirish va bozorlarni diversifikatsiya qilish orqali eksportni 10 baravarga oshirish imkonini ko'rsatgan bo'lsa, Niderlandiya zamonaviy texnologiyalar va raqamli tizimlar yordamida YIMning 15-20 foizini qishloq xo'jaligi eksportidan ta'minlagan. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun eksport bozorlarini kengaytirish va innovatsiyalarni joriy etishda muhim yo'l-yo'riq beradi.

Jadvalda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi eksportidagi muammolar, xususan, logistik xarajatlarning yuqoriligi. Bu muammolar eksport narxlarining raqobatbardoshligini pasaytiradi va global bozorlarda, xususan, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyoda o'rin egallashni qiyinlashtiradi. Niderlandiya tajribasi suv tejaydigan tizimlar va raqamli monitoring orqali hosildorlikni 30-40 foizga oshirish mumkinligini ko'rsatadi, bu O'zbekiston uchun 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy sug'orish texnologiyalari bilan o'zlashtirish maqsadini amalga oshirishda muhim namuna bo'la

oladi Shu bilan birga, Chili tajribasi davlat-xususiy sheriklik va savdo shartnomalarini kengaytirish orqali eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi. O'zbekistonning eksporti hozirda asosan MDH bozorlariga (70 foizdan ortiq) yo'naltirilgan bo'lib, bu diversifikatsiya darajasining pastligini ko'rsatadi.



Bu muammoni bartaraf etish uchun hukumat ma'lumotlarni o'z vaqtida va shaffof ravishda e'lon qilish mexanizmini joriy etishi, raqamli platformalardan foydalanishi va xalqaro standartlarga moslashishi mumkin, bu esa investorlar ishonchini oshirib, eksport shartnomalarini osonlashtiradi. 2025 yil boshida O'zbekiston pomidor eksporti hajmi va qiymati bo'yicha sezilarli pasaygan, bu mavsumiy omillar va bozor raqobati bilan bog'liq. Muammoni hal qilish uchun issiqxona texnologiyalarini kengaytirish, mavsumdan tashqari yetishtirishni rivojlantirish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish lozim, shuningdek, sifat nazoratini kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. 2025 yil birinchi choragida qishloq xo'jaligi eksporti qiymati o'sgan bo'lsada, hajm bo'yicha pasayish kuzatilgan, bu logistika va ishlab chiqarish samaradorligi muammolari bilan izohlanadi. Bartaraf etish yo'li sifatida logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport xarajatlarini kamaytirish va qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish kerak, bu esa qo'shilgan qiymatni oshirib, hajm va qiymatni muvozanatlashtiradi. Qishloq xo'jaligi korxonalari yuqori qarz, past likvidlik va rentabellik bilan yuzma-yuz kelgan, bu eksport salohiyatini cheklaydi. Muammoni yechish uchun moliyaviy subsidiyalarni kengaytirish, qarzlarini qayta tuzish dasturlarini joriy etish va davlat-xususiy sheriklik orqali investitsiyalarni jalb qilish zarur, shuningdek, xatarlarni sug'urtalash tizimini rivojlantirish korxonalar barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekistonning izolyatsion savdo siyosati va yuqori tariflar eksportni cheklab, bozorlarga kirishni qiyinlashtirgan. Bartaraf etish uchun savdoni liberallashtirish, xalqaro savdo shartnomalariga qo'shilish va tariflarni

kamaytirish lozim, bu esa eksport geografiyasini kengaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi va yangi bozorlarga yo'l ochadi.

XULOSA.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirish sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsada, 2025 yilda bir qator muammolar, jumladan, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, suv resurslaridan samarasiz foydalanish, eksport bozorlarining cheklanganligi, qayta ishlashning past darajasi va xalqaro standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar soha salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. 2024 yilda eksport 174,9 foizga o'sib, umumiy tashqi savdo aylanmasining 10 foizdan ortig'ini tashkil etgan bo'lsada, 2025 yilda pomidor eksportining pasayishi, don hosili ma'lumotlarining kechikishi va korxonalar qarzdorligi kabi yangi muammolar aniqlangan Chili va Niderlandiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, savdoni liberallashtirish, zamonaviy sug'orish tizimlari va raqamli platformalarni joriy etish eksport hajmini 10-20 baravarga oshirishi mumkin. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar, xususan, bir gektardan 5 ming dollar daromad olish va eksportni 10 milliard dollarga yetkazish uchun logistika xarajatlarini 15-20 foizga kamaytirish, qayta ishlashni 25 foizdan yuqoriga ko'tarish, suv tejaydigan texnologiyalarni 300 ming gektarga joriy etish va davlat-xususiy sheriklik orqali investitsiyalarni jalb qilish zarur. Xalqaro savdo shartnomalariga qo'shilish va Yevropa hamda Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga kirish eksport diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Ushbu strategik choralar O'zbekistonni global qishloq xo'jaligi bozorida raqobatbardosh ishtirokchiga aylantirib, 2026 yilga 30 milliard dollar va 2030 yilga 10 milliard dollarlik eksport maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistik agentligi. Qishloq xo'jaligi statistikasi. 2023 yil. Stat.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli —O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-sonli —Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga.

6. A.A. Eshonqulov Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o'quv qollanman. "TIB NASHR", - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.
7. O'.M.Rahimov. Qishloq ho'jalik mahsulotlari eksport salohiyatini rivojlantirishda davlat qo'llab quvvatlashining roli. International scientific and practical conference "environmental protection and scientific foundations of the "green" economy", april 4-5, 2025
8. Lebdioui, A. Chile's export diversification since 1960: 2023 yil
9. U.S. Department of agriculture foreign agricultural service (USDA FAS). Chile - Agricultural sector. Trade.gov 2023.
10. Washington Post. (2022). Netherlands is the second-largest exporter of agricultural products. Washington Post Interactive.
11. Турдалиев А., Юлдашев Г. Геохимия педолитных почв. Монография //Т." Фан. - 2015. - С. 41-48
12. Аскарлов К. А., Турдалиев А. Т., Сотиболдиева М. М. Геохимия микроэлементов в почвах Центральной Ферганы //Современные научные исследования и разработки. - 2018. - Т. 2. - №. 5. - С. 42-45.
13. N.Sh. Muminov, A.R. Abdirayimov Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. Academic Research in Educational Sciences 2023 yil.
14. Хакимов, Д. В., & Мирзаев, О. А. (2017). Задачи метрологического обеспечения в повышении качества агропромышленной продукции. In Современное экологическое состояние природной среды и научнопрактические аспекты рационального природопользования (pp. 1657-1660).
15. B.E. Rasulov. "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishdagi muammolar va ularning yechimi". Toshkent: Sharq, 2019.